

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 2. Jild 4.

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 2(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холиқулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ***Файзуллаева Мавлюда Хамзаевна*ЎЗБЕК ВА ТОЖИК АНЪАНАВИЙ ТАОМЛАРИДА ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРНИНГ АКС
ЭТИШИ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА) 10-15*Umarov Sardor Yakubovich*QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYADA MEHNAT BOZORINI ISLOH QILISH, AHOLI BANDLIGI,
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR 16-20**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ***Shadiyeva Gulnora Mardiyevna*O'ZBEKISTONDA EKSPORTNING OSHISHINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETISH
YO'LLARI..... 21-29*Халилдинов Азизбек Абдуқаххорович*КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ
БОШҚАРИШГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР 30-34*Мавлянов Мажид, Урдушев Хамракул*

КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ: ЧОРВАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ 35-45

*Асроров Азизбек Исомиддин угли*ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРИРОДА РИСКОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 46-52*Хайдарова Дурдона Шухратжон қизи, Ачилбойева Севинч О'ткир қизи*

МАНАЛЛИЙ BUDJET DAROMADLARI HISOBI TASHKIL ETISHNING NAZARIY JIHATLARI. 53-60

*Камалов Акмал Сайдакбарович*ХАЛҚАРО ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ЭҲТИМОЛЛИГИНИНГ
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ
УСЛУБИЯТИ ИШЛАБ ЧИҚИШ 61-68*Namazov Gafur Shokulovich*

IQTISODIYOTDA GIBRID MODELLARNI QO'LLASH 69-75

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich*

YANGI O'ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TIZIMLI O'ZGARISHI 76-81

Kadirova Ziyoda Rahimdjanovna

ISLOM FALSAFASIDA ILM TUSHUNCHASINING MOHIYATI 82-86

Turdiyev Bexruz Sobirovich

JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI 87-92

Alimatova Nargis Abduxalilovna

KONSTITUTSIYADA HALOL RAQOBAT KAFOLATI 93-98

Abdullayev Ibodulla Abdullayevich, Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi

MA'NAVIYAT – YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM POYDEVORIDIR..... 99-103

<i>Кувандиков Шокир Облокулович</i> МАҲМУДХҲҲЖА БЕҲБУДИЙ МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ФАЛСАФИЙ МАНБАЛАРИ	104-111
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR MAFKURAVIY ONGI TRANSFORMATSIYALASHUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR	112-119
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> BADIIY MUHITDA TANQIDIYLIK VA SATIRANING TABIIY KOMMUNIKATSIYASI	120-125
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Saitova Nilufar Djumaydillayevna</i> YOSH O'ZBEK SHOIRLARI: VOQELIKNI IDROK ETISH VA UNI BADIIY IFODALASH TENDENSIYALARI	126-130
<i>Nurmanov Furqat Hayitqulovich</i> O'G'UZ" ETNONIMI VA O'G'UZLAR	131-137
<i>Qudratova Sitora Olimovna</i> AQSH HIKOYACHILIGI TARIXI VA SPETSIFIKASINING BADIIY IFODASI HAMDA JANR IJODKORLARI.....	138-148
<i>Fayziyeva Aziza Anvarovna, Safarova Nigora Axatovna</i> METAFORALARNING O'ZBEKCHA TARJIMASIGA KOGNITIV YONDASHUV	149-153
<i>Qodirova Madinabonu Murodjon qizi</i> LINGVISTIK TA'MINOT VOSITALARI: TUZILISHI VA TARKIBI	154-159
<i>Аллабердиева Регина, Мадалов Навруз</i> ТАКСОНОМИЯ ГЕНДЕРНО-МАРКИРОВАННЫХ ПАРЕМИЙ - РЕГУЛЯТИВОВ АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ	160-165
<i>Azimova Aziza Alisher qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI	166-172
<i>Shoymardonov Ilhom Alixonovich</i> BAHOR, YOZ, KUZ MAVSUMLARI BILAN BOG'LIQ BOLALAR QO'SHIQLARI	173-178
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI....	179-184
<i>Mirzayev Jasur, Madalov Navruz</i> THE DIALOGIC NATURE OF PERSONIFICATION IN THE POETICS OF WILLIAM BLAKE.....	185-190
<i>Yuan Xiaowei</i> ON THE TITLE AND LEXICAL FEATURES OF THE WINTER OLYMPICS NEWS REPORT IN CHINA DAILY	191-197
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ражабов Нариман Шарифбаевич</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОБРОВОЛЬНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СЕРТИФИКАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	198-206
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLIK	

HUQUQI OBYEKTLARIDAN FOYDALANUVCHI SHAXSLAR O'RTASIDAGI SHARTNOMALAR TASNIFI.....	207-212
<i>Inoyatov Behruzjon Umidjon o'g'li</i> TOVAR BELGILARINING HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	213-220
<i>Raimova Shohsanam Fayratjonovna</i> РЕЦИДИВ ЖИНОЯТЛАР ВА УЛАРНИНГ ХУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ.....	221-227
<i>Mukimov Bobur</i> CURRENT ISSUES OF IMPROVING THE PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY AT THE INTERNATIONAL LEVEL.....	228-234
<i>Нодирахон Абдурахманова</i> ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН, СМАРТ-КОНТРАКТОВ И КРИПТОВАЛЮТ НА РАЗВИТИЕ ПРАВА.....	235-239
<i>Акмалхонов Боситхон Азизхон ўғли</i> ЗАЩИТА ПРАВА ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ПРАКТИКЕ ЕВРОПЕЙСКОГО СУДА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА.....	240-246
<i>Turakulova Nazira</i> MUALLIFLIK HUQUQIDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOVIIY BOSHQARISH.....	247-260
<i>Якубов Бекзод Эркинбаевич</i> КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН ҲОЛЛАРДА ТЕЗКОР – ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ ВА УНИНГ ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ.....	261-265
13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Мамажонов Хошимжон Абдумаликович</i> ФИЗИКА ФАНИНИ ИЈОДИЙ О'ЗЛАСHTIRISH YO'LLARI (АКАДЕМИК ЛИТСЕЈЛАР МИСОЛИДА).....	266-271
<i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i> O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARIDA ISPAN TILI BO'YICHA IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI O'QITISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISHTI.....	272-281
<i>Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich</i> TASVIRIIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI.....	282-287
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i> KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	288-291
<i>Omonqulov Ulug'bek Maxsiddin o'g'li</i> IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI.....	292-296
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM.....	297-304
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> TASVIRIIY SAN'ATNING O'QUVCHILAR IDROKI VA IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI.....	305-310

Yusupova Feruza Hajiboyevna, Gaipova Nilufar Jasurbekovna

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK TA'LIM BERISHDA GRAFIK

ORGANAYZERLARNING ROLI 311-317

Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna

SOMONIYLAR DAVRI SAN'ATI VA UNING JAHON TARIXIDAGI ROLI..... 318-322

Inoyatov Behruzjon Umidjon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Yuridik ta'minlash bo'limi bosh yuriskonsulti

TOVAR BELGILARINING HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada tovar belgilarining vujudga kelish asoslari, uning muhofaza hujjati, tovar belgilarini muhofaza qilishning milliy va xalqaro-huquqiy asoslari, sohaga oid huquqbuzarliklar va javobgarlik bilan bog'liq ayrim masalalar, ayniqsa, milliy qonunchilikni xalqaro normalarga moslashtirish yo'llari bilan bog'liq taklif va tavsiyalar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: tovar belgilari, shaxsiylashtirish funksiyasi, axborot funksiyasi, reklama funksiyasi, xalqaro tajriba, Intellektual mulkning savdo jihatlarini to'g'risidagi Bitim (TRIPS), javobgarlik, patent.

Inoyatov Behruzjon Umidjon o'g'li
Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan
Chief legal consultant of the legal provision department

ISSUES OF IMPROVING LEGISLATION REGULATING THE LEGAL PROTECTION OF TRADEMARKS

Abstract. In this article, the foundations of the creation of trademarks, their protection document, national and international legal foundations of trademark protection, some issues related to violations and liability in the field, especially the proposal related to the ways of adapting national legislation to international norms and recommendations reflected.

Keywords: trademarks, personalization function, information function, advertising function, international experience, Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property (TRIPS), liability, patent.

Иноятгов Бехрузжон Умиджон ўғли
Министерство высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан
Главный юрисконсульт отдела правового обеспечения

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА, РЕГУЛИРУЮЩЕГО ПРАВОВУЮ ОХРАНУ ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ

Аннотация. В данной статье рассмотрены основы создания товарных знаков, их охранный документ, национальные и международные правовые основы охраны товарных знаков, некоторые вопросы, связанные с нарушениями и ответственностью в этой сфере, особенно предложения, связанные с путями адаптации национального законодательства к международным нормам. и рекомендации отражены

Ключевые слова: товарные знаки, функция персонализации, информационная функция, рекламная функция, международный опыт, Соглашение по торговым аспектам интеллектуальной собственности (ТРИПС), ответственность, патент.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I2Y2024N31>

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan islohotlar, avvalambor, milliy iqtisodiyotimizni yuksaltirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va shu orqali tadbirkorlik faoliyati rivojiga keng yo'l ochib berishga qaratilgan. Ishlab chiqaruvchilarning tovarlarini diversifikatsiya qilish va ularning o'z tovar belgilariga bo'lgan mutlaq huquqlarini muhofaza qilish mazkur sohadagi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda.

Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hajmi va ishlab chiqaruvchilarning tovar belgisiga bo'lgan mutlaq huquqlarini muhofaza qilishda rivojlangan davlatlar tajribasi alohida e'tirofga sazovordir.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda Konstitutsiya va qonun normalari so'zsiz ishlashi uchun ishonchli huquqiy kafolat yaratilmoqda. Adolatli ijtimoiy siyosat o'rnatilishining muhim qonuniy asosi bu – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. Asosiy qonunimizning 53-moddasiga asosan har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi belgilangan [1].

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1031-moddasida intellektual mulk obyektlari jumlasiga:

1) intellektual faoliyat natijalari:

fan, adabiyot va san'at asarlari;

ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari;

elektron hisoblash mashinalari (bundan buyon matnda EHM deb yuritiladi) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari;

ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari;

seleksiya yutuqlari;

oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau);

2) fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar:

firma nomlari;

tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);

geografik ko'rsatkichlar;

3) ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar kirishi belgilangan [2].

Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi, bu — bir yuridik yoki jismoniy shaxsning tovarlari va xizmatlarini boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslarning xuddi shu turdagi tovar va xizmatlaridan farqlashga yordam beradigan hamda o'z sohibi nomiga tegishli tartibda rasmiylashtirilgan nishon-tamg'adir. Bunday belgilar sifatida so'zlar, harflar, raqamlar, tasvirlar, muayyan shakllar, logotiplar, etiketkalar va ularning birikmalari, bir yoxud turli rangdagi jamlanma ifodalar ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda tovar belgilarining funksiyalari quyidagi uch asosiy guruhga ajratiladi [5]:

shaxsiylashtirish funksiyasi – bir ishlab chiqaruvchi muayyan turdagi tovarni raqobatchi hisoblangan boshqa ishlab chiqaruvchining analogik tovaridan farqlashga xizmat qiladi;

axborot funksiyasi – iste'molchiga tovar haqidagi axborotlarni yetkazib berish hamda ularga tanlash imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi;

reklama funksiyasi – tovar sifati to‘g‘risidagi axborotlarni jamoatchilik e‘tiboriga havola qilish orqali, uni iste‘molchilar orasida tanitish.

Tovar belgilari ishlab chiqarilgan mahsulotning (tovarlar, ishlar, xizmatlar) xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vosita sifatida turlicha asoslarga ko‘ra tasniflanishi mumkin. Xususan, ifodalanish shakliga ko‘ra, tovar belgilari so‘zli, tasvirli, hajmli, jamlanmali, ovozli, hidli va rangli bo‘lishi mumkin.

Foydalanilayotgan belgilar tizimiga ko‘ra, tovar belgilari tilga oid, tilga oid bo‘lmagan va kombinatsiyali kabi turlarga ajratilishi mumkin. Foydalanuvchi subyektlarning soniga ko‘ra, tovar belgilari individual tovar belgilari va kollektiv tovar belgilari kabi tasniflanadi. Iste‘molchilar orasida taniqliligiga ko‘ra, tovar belgilari oddiy, hammaga ma‘lum va jahon tovar belgilari kabi tasniflanadi. Tovar iste‘molchilarining huquqlari kafolatlarining darajasiga ko‘ra, oddiy va sertifikatсион belgilarga ajratiladi.

Yuqorida qayd etilgan belgilardan eng keng foydalaniladigani tovar belgilari hisoblanadi. K. Verkmanning ta‘kidlashicha, xalqaro amaliyotda so‘zli belgilar barcha foydalaniladigan belgilarning taxminan 80 % ni tashkil etadi [7].

Xitoylik olim Olkin Lining fikricha, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining tovar belgilari tovarlar, ishlar, xizmatlar, shuningdek fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining xususiy alomatlarini o‘zida aks ettirishi bilan bir qatorda, iste‘molchida tovarlar, ishlar, xizmatlar va ularning sifati to‘g‘risidagi axborotlarning shakllanishi juda muhim vosita hisoblanadi [6].

Tovar belgisi biznes modeli va rejasining muhim tarkibiy qismidir. Bu brendning obro‘si va o‘ziga xosligini o‘z ichiga oladi. Bozor gavjum va har bir brend agressiv marketing taktikasi orqali mijozlar uchun kurashmoqda. Tovar belgisi har bir brendning muvaffaqiyatida hal qiluvchi rolini e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi.

Tovar belgisi orqali har bir brendning qadriyatlarini, e‘tiqodlari, maqsadi va qarashlarini yetkazishi mumkin. Shuningdek, brendning boshqalardan ajralib turishi va mijozlarga xarid qilish to‘g‘risida qaror qabul qilishga ham yordam beradi. Tovar belgisi o‘zining o‘ziga xosligi yoki obro‘si bilan aniqlansa, mijozlar tovar belgisini ko‘rganlarida, ular aniq bir narsani olishlarini darhol bilishadi.

O‘ziga xos tovar belgisiga ega bo‘lish marketing va reklamani soddalashtiradi. Tovar belgisi taniqli bo‘lgandan so‘ng, marketing materiallarida undan osonroq foydalanish mumkin. Bunga Apple foydalanadigan olma belgisi mukammal misoldir. Har bir inson o‘sha belgini ko‘rish orqali brendni aniqlay oladi. Ko‘pincha Apple o‘z reklamalarida so‘zlarni ishlatmaydi [9].

Tovar belgisi mashhur bo‘lgani sari undan begona shaxslarning foydalanishidan himoya qilish dolzarb muammoga aylanadi.

Buni O‘zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasidagi amaldagi qonun hujjatlari normalari orqali amalga oshirsa bo‘ladi.

Tovar belgisiga huquqiy ta‘rif O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi 267-II-sonli Qonunining 3-moddasida belgilab berilgan. Chunonchi, tovar belgisi va xizmat ko‘rsatish belgisi bu bir yuridik va jismoniy shaxslar tovarlari va xizmatlarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning shu turdagi tovarlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan belgilardir [3].

Qonunning 4-moddasida tovar belgisi huquqiy jihatdan uni ushbu Qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish asosida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq ravishda muhofaza qilinishi belgilangan. Tovar belgisidan

foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligiga davlat axborot tizimlari orqali beriladi.

9-moddaga asosan, Tovar belgisidan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish uchun beriladigan talabnoma bir tovar belgisiga taalluqli bo'lishi lozim.

Talabnomada quyidagilar bo'lishi kerak:

tovar belgisi sifatida foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza;

talabnomada ko'rsatilgan belgining tasviri;

belgilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun tovarlar va xizmatlarning xalqaro tasnifiga muvofiq guruhlangan, tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish so'ralayotgan tovarlarning ro'yxati;

tovar ishlab chiqarilgan joyni jo'g'rofiy obyekt chegarasida ko'rsatgan holda tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish so'ralayotgan tovar turining nomi hamda uning alohida xususiyatlari tavsifi.

Talabnomaga quyidagilar ilova qilinishi zarur:

talabnoma berganlik uchun patent boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

talabnoma patent vakili orqali berilgan taqdirda talabnoma beruvchining ishonchnomasi;

talabnoma beruvchining zikr etilgan jo'g'rofiy obyektida joylashganligini va alohida xususiyatlari mazkur jo'g'rofiy obyektga xos tabiiy sharoitlar yoki boshqa omillar bilan yoxud tabiiy sharoitlar va ushbu omillarning birikmasi bilan bog'liq tovar ishlab chiqarishini tasdiqlovchi hujjatlar;

chet ellik talabnoma beruvchining tovar kelib chiqqan joyning talabnomada ifodalangan nomidan tovar kelib chiqqan mamlakatda foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Tovar belgisidan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazishga doir talabnomani rasmiylashtirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarga taalluqli talablar Agentlik tomonidan belgilanadi.

Qonunga muvofiq quyidagilar tovar belgilari sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydi:

1) davlat gerblari, bayroqlari va davlat mukofotlarining tasviri tushirilgan belgilar;

2) davlatlarning rasmiy nomlari, xalqaro yoki hukumatlararo tashkilotlarning qisqartirilgan yoki to'liq nomlari;

3) rasmiy nazorat, kafolat tamg'alari va namuna yo'sinidagi tamg'alar, muhrlar;

4) davlat xizmatlarining O'zbekiston Respublikasida qo'llaniladigan ajratish va farqlash belgilari tasvirlari;

5) farqlash xususiyatiga ega bo'lmagan belgilar;

6) muayyan turdagi tovarlarning belgisi sifatida umum foydalanishda bo'lgan belgilar;

7) umum e'tirof etilgan ramzlar va atamalar hisoblangan belgilar;

8) tovarlarni, shu jumladan ularning turi, sifati, soni, xususiyati, qanday maqsadga mo'ljallanganligi va qiymatini, shuningdek ularning ishlab chiqariladigan yoki o'tkaziladigan joyi va vaqtini tavsiflash uchun foydalaniladigan belgilar;

9) tovar yoki uning tayyorlovchisi xususidagi yolg'on yoki iste'molchini chalg'itishi mumkin bo'lgan belgilar;

10) tovar kelib chiqqan haqiqiy joyni rasman ko'rsatuvchi, lekin tovar boshqa hududda chiqarilayotganligi haqida yanglish tasavvur beruvchi belgilar;

11) ma'danli suvlar, vino yoki kuchli spirtli ichimliklarning asliyatini aks ettiruvchi jo'g'rofiy nomlar bo'lgan yoki shunday nomlarni ifodalovchi belgilar, mazkur joyda chiqarilmagan tovarlarni belgilash uchun ishlatilgan belgilar, shuningdek basharti ular tarjima

qilinib yoki “ko‘rinishdagi”, “turdagi”, “usuldagi” va boshqa shunga o‘xshash so‘zlar bilan qo‘shilgan holda qo‘llanilsa;

12) jamiyat manfaatlariga, odamiylik va axloq qoidalariga zid bo‘lgan belgilar;

13) quyidagi belgilar:

ilgari O‘zbekiston Respublikasida boshqa shaxs nomiga ro‘yxatdan o‘tkazilgan yoki ro‘yxatdan o‘tkazish so‘rab talabnoma berilgan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkazilmay ham muhofaza qilinadigan yoki shu turdagi tovarlarga nisbatan ancha ilgariroq ustuvorlikka ega bo‘lgan tovar belgilari bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga aynan o‘xshash bo‘lgan belgilar;

har qanday tovarlarga nisbatan boshqa shaxslarning belgilangan tartibda hammaga ma‘lum deb e‘tirof etilgan tovar belgilari bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga aynan o‘xshash bo‘lgan belgilar;

qonunga muvofiq muhofaza qilinadigan geografik ko‘rsatkichlar va tovar kelib chiqqan joy nomlari bo‘lgan belgilar bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga aynan o‘xshash bo‘lgan belgilar, bu belgilar har qanday tovarlarga nisbatan shunday ko‘rsatkichdan yoki nomdan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxs nomiga ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan tovar belgisiga muhofaza qilinmaydigan qism sifatida kiritilgan hollar bundan mustasno;

belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan sertifikatlash belgilari bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga aynan o‘xshash bo‘lgan belgilar;

14) quyidagi belgilar:

o‘zga shaxslarga tegishli va O‘zbekiston Respublikasi hududida taniqli bo‘lgan firma nomlarini (yoki ularning bir qismini), agar bu nomga bo‘lgan huquq bir turdagi tovarlarni belgilash uchun tovar belgisiga doir talabnoma kelib tushgan sanadan avvalroq olingan bo‘lsa, takrorlovchi belgilar;

sanoat namunalarini, agar ularga bo‘lgan huquq O‘zbekiston Respublikasida o‘zga shaxslarga tegishli bo‘lsa, takrorlovchi belgilar;

O‘zbekiston Respublikasida mashhur bo‘lgan ilmiy asarlar, adabiyot va san‘at asarlarining nomlarini, ularning qahramonlarini yoki iboralarini, san‘at asarlarini yoki ulardan ko‘rinishlarni mualliflik huquqiga ega bo‘lgan shaxs yoki uning huquqiy vorislari (merosxo‘rlari) roziligini olmagan tarzda takrorlovchi belgilar;

atoqli shaxslarning familiyalari, ismlari, taxalluslarini va ulardan yasalgan so‘zlarni, bunday shaxslarning portretlarini hamda dastxatlarini, basharti bular O‘zbekiston Respublikasining tarixiy va madaniy boyligi bo‘lsa, ana shu atoqli shaxslar, ularning merosxo‘rlari yoki davlat organi roziligini olmagan tarzda takrorlovchi belgilar.

O‘zbekistonda umumiy qoidadan istisno bor agar ancha avvalgi belgi egasi rozilik bersa, keyingi belgi ro‘yxatdan o‘tkazilishi mumkin. Lekin, bu istisno aynan bir xil belgilarga emas, balki faqat aralashtirib yuborish darajasidagi o‘xshash belgilarga nisbatan tatbiq etiladi [8].

Tovar belgisiga doir guvohnomadan foydalanish huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma talabnoma berilgan sanadan e‘tiboran o‘n yil mobaynida amal qiladi.

Tovar belgisiga doir guvohnomadan foydalanish huquqi to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilish muddati guvohnoma amal qilayotgan oxirgi yil mobaynida uning egasi tomonidan berilgan arizaga binoan har safar o‘n yilga uzaytirilishi mumkin.

Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarining huquqiy jihatdan aynan mazmun-mohiyat kasb etishi sohaga oid xalqaro shartnomalarda ham o‘z aksini topgan. Xususan, 1994-yilning 27-oktabrida Jenevada imzolangan “Tovar belgilari bo‘yicha qonunlar to‘g‘risida”gi Shartnomaning 16-moddasiga asosan, Ahdlashuvchi tomonlar xizmat ko‘rsatish belgilariga nisbatan Parij konvensiyasining tovar belgilariga nisbatan tegishli qoidalarini qo‘llaydilar va

ularni ro'yxatdan o'tkazadilar. Bundan tashqari, Intellektual mulkning savdo jihatlari to'g'risidagi Bitimning (TRIPS) 15-moddasiga ko'ra, bir korxonaning tovarlari va xizmatlarini boshqa korxonaning tovarlari va xizmatlaridan farqlash foydalaniladigan istalgan belgi yoki belgilar kombinatsiyasi tovar belgisi sifatida e'tirof etiladi [4].

1883-yilning 20-martida imzolangan "Sanoat mulki muhofazasi to'g'risida"gi Parij konvensiyasining 6^{ter}-moddasi normalariga asosan, Ittifoq mamlakatlari rasmiy belgilar va nazorat tamg'alari va kafolatlar, bayroqlari va boshqa davlat emblemalari tovar belgilari sifatida yoki ushbu gerblar belgilarining elementlari sifatida vakolatli ma'murlarning ruxsatisiz ro'yxatdan o'tkazilishini rad etish va haqiqiy emas deb e'tirof etish va tegishli chora-tadbirlar ko'rish yo'li bilan taqiqlashga, shuningdek geraldika nuqtai nazaridan bunga har qanday taqlid qilishni taqiqlashni o'z zimmalariga oladilar.

Yevropa Ittifoqida esa Yevropa Ittifoqi Kengashining "Tovar belgilari bo'yicha milliy qonunchilikni garmonizatsiya qilish to'g'risida"gi 89/104-sonli Direktivasining 3-moddasi rang, ovozlar va hidlar shaklidagi noan'anaviy tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazishni nazarda tutmaydi. Ya'ni, Direktiva ranglar va ranglar birikmasidan iborat bo'lgan tovar belgilarining huquqiy himoyasi bo'yicha alohida normalarni o'zida aks ettirmagan, biroq Direktivada mazkur belgilarni tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazishni rad etuvchi qoidalar ham mavjud emas. Shuningdek, 89/104-sonli Direktivaning 3-moddasi ikkinchi qismi "b" bandiga asosan, diniy ramzlar yoki yuqori mazmun-mohiyat kasb etuvchi boshqa belgilar tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin emas. Yevropa Ittifoqining 89/104-sonli Direktivasining yana bir ahamiyatli jihati shundaki, mazkur Direktiva tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish yoki haqiqiy emas deb topishning majburiy hamda fakultativ asoslarini nazarda tutadi. Xususan, 89/104-sonli Direktiva 3-moddasi birinchi qismining "b" bandiga asosan, tovar belgisida farqlovchi xususiyatlarning mavjud emasligi, uni tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazilishining rad etilishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, xalqaro doirada mutlaq huquqlarni samarali muhofaza qilishda TRIPS (Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights, ingl.-TRIPS-intellektual mulkning savdo aspektlari bo'yicha bitim) bitimining o'рни katta. Hozirgi paytda Butunjahon Savdo tashkilotiga a'zo bo'lishni istagan har bir davlat TRIPS bitimini imzolashi va uning normalariga amal qilishi, milliy qonunchilikni uyg'unlashtirmog'i shart. TRIPS bitimining predmeti bo'lib, intellektual mulk egalarining huquqlari mavjud bo'lgan tovarlar savdosini tartibga solishdir. Zero, TRIPS bitimida mutlaq huquqlarni himoya qilish va uni samarali mexanizmi ochib berilgan.

Yuqorida keltirib o'tilganlarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining tovar belgilari huquqiy himoyasini ta'minlashda huquqiy vositalarni to'g'ri tanlash va ulardan samarali foydalanishda ushbu obyektlarni to'g'ri va aniq tasniflash muhim hisoblanadi. Shu bois, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining tovar belgilarini tasniflashda xorijiy mamlakatlarning ilg'or qonunchilik tajribasidan, shuningdek xalqaro shartnomalar normalaridan kelib chiqqan holda yondashish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa. Yuqorida o'rganilgan rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, tovar belgilarining huquqiy jihatdan muhofaza qilishni tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish maqsadida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlariga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etiladi. Jumladan,

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 65-bobi 2-paragrafi Tovar belgisi (xizmat ko'rsatish belgisi) deb nomlanadi. Biroq mazkur paragrafda tovar belgisiga ta'rif berilmagan. Xususan, Fuqarolik Kodeksining 1102-moddasida tovar belgisi (xizmat ko'rsatish

belgisi) uni ro'yxatdan o'tkazish asosida huquqiy jihatdan muhofaza qilinishi belgilab berilgan, xolos. Kodeksda tovar belgisiga ta'rif berish maqsadga muvofiq.

2. Fuqarolik kodeksida belgilangan normalar 80 dan ortiq qonun hujjatlarida takror qo'llanilgan. Ushbu holatni bartaraf etish. Normativ-huquqiy hujjatlardagi takrorlanishlarni oldini olish ushbu sohadagi norma ijodkorligini oshirilishiga olib keladi. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksidagi normalar quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarda takrorlanib qo'llanilgan:

– O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldagi O'RQ-42-son "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi 397-II-son "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi 395-II-son "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 12-maydagi 218-II-son "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi 267-II-son "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonuni va boshqalar. Ushbu holatda takror qo'llanilgan normalarni qonun hujjatlaridan olib tashlagan holda, ularni faqat Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinishi bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqilishi lozim. Shuningdek, boshqa tomondan olib qaraganda Fuqarolik kodeksidagi intellektual mulk bilan bog'liq normalar va boshqa ushbu soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar normalarini alohida kodeks shaklida keltirilishi ham maqsadga muvofiq. Bunda ushbu sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar takror qo'llanilmaydi va soddalashtiriladi. Bu ushbu sohani amaliyotini osonlashtirilishiga ham olib keladi.

3. Jarima miqdorini oshirish. Rivojlangan davlatlarning barchasida agar huquqbuzar shaxslar ushbu huquqbuzarlikni takror sodir qilganda jarima miqdori ikki marta oshirilishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 149-moddasida jarima va jazo bir marta sodir etilganlik uchun. Agar ushbu shaxs qayta sodir etganda unga og'irlashtiruvchi holat sifatida jarima miqdorining yuqori darajasi qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Bu ushbu holatni yana qayta sodir etilishini oldini olishi mumkin. Ushbu taklif bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 149-moddasiga 2-qismni qo'shilishiga olib keladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning intellektual mulk huquqini buzilishi bilan bog'liq ikkita moddani umumlashtirgan holda bitta modda shakliga keltirish. Bugungi kunda amaldagi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda intellektual mulk huquqini buzish bilan bog'liq uchta modda belgilab qo'yilgan. Ya'ni, 177, 177¹ va 177²-moddalari mavjud. Ushbu moddalarni alohida 177-modda. Intellektual mulk huquqni buzish deb o'zgartirish maqsadga muvofiq. Bunda kodeksning uchta moddasini alohida bandler bilan belgilab qo'yiladi yoki ularning o'xshashlari umumlashtiriladi. Bu ushbu kodeksning moddalari soni qisqarishiga olib keladi.

5. Bugungi kunda axborot kommunikatsiyaning roli oshib bormoqda. Shuningdek, intellektual mulk huquqi sohasida ham axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Yaratilayotgan ixtirolar yoki intellektual mulk huquqi obyektlarini himoyasi masalasini alohida mexanizmi ishlab chiqilishi lozim. Agar axborot kommunikatsiya texnologiyalarining oqibatida intellektual mulkning egasini huquqlari buzilganda ushbu holatni oldini olish maqsadida hamda huquqlari buzilishiga jazo qo'llanilishi uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga va Jinoyat kodeksiga javobgarlik belgilanishi maqsadga muvofiq. Xususan, tovar belgilariga bo'lgan mutlaq huquqlarni himoya

qilish sohasi hozirgi kunda milliy qonunchiligimizda tegishli tartibga solinmagan. Tovar belgilariga bo'lgan mutlaq huquqlarni Internetda himoya qilish sohasida quyidagi muhim jihatlarni inobatga olish lozim. Domen nomlari intellektual mulk obyekti hisoblanmaydi. Xitoy Xalq Respublikasi qonunchiligiga asosan domen nomlari tovar belgisini joylashtirishning usuli hisoblanadi (Qonunning 5-moddasi). O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga (Tovar belgisidan foydalanish) o'zgartirish kiritish kerak.

Adabiyotlar/Литература/ References:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida" Qonuni 30.08.2001 yildagi 267-II-son
4. Toshev B., Nabiev F., Intellektual mulk huquqi: tovar belgilarining huquqiy muhofazasi Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2019. – 194 b.
5. Belov V.V., Vitaliev G.V., Denisov G.M. Intellektualnaya sobstvennost: Zakonodatelstvo i praktika ego primeneniya: Uchebnoe posobie. -M.: 1997. -S. 79-80.
6. Li. K. O. Economics Today. The Macro View. Shanghai. 2001.; r.87
7. Verkman Kasper Dj. Товарный знак: Sozdanie, psixologiya, vospriyatie. -M.: 1986. -S 178
8. Oqyulov O. Intellektual mulk huquqiy maqomining nazariy va amaliy muammolari. –T.: TDYuI. 2004. 158-bet
9. URL: http://www.wipo.int/legal_acts/international/lisbon

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 2 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).